

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.U.Nurmatova	
Yusuf Hamadoniy- tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi, mutasavvuf olim	428
S.Q.Qaxxorova	
Yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirish ularni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash istiqbollari.....	432
A.E.To'Iqinov	
Janubiy Farg'ona kanali suvining tabiiy-geografik tavsifi	437
Sh.T.Abbosova	
Yurtimiz taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya strategiyasining istiqbollari	442
М.Мирзарахим	
Роль педагогических стратегий в интеграции искусственного интеллекта.....	448
B.A.Talapov	
Yangi O'zbekistonda inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi	454
Z.Y.Adilov	
Mahmud Az-Zamaxshariy ma'naviy merosining falsafiy tahlili	459
D.D.Boymirzayeva	
Bo'lajak ta'lif menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish va uning tashkiliy-boshqarish mexanizmlarini modernizatsiyalash.....	464
I.I.Soliyev	
Oliy ta'lif muassasalarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari	468
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyon go'shti aminokislota tarkibini o'rganish.....	472
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyon qo'shimcha mahsulotlarining mineral tarkibini o'rganish.....	477
O.O.Isaqov	
Talabalarda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik tashxisi	483



УО'К: 37.034.6:172.15

**YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISH ULARNI VATANPARVARLIK RUXIDA
TARBIYALASH ISTIQBOLLARI**

**ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНОГО КАЧЕСТВА МОЛОДЕЖИ И ВОСПИТАНИЕ ЕЕ В ДУХЕ
ПАТРИОТИЗМА**

**INCREASING THE SPIRITUAL CAPACITY OF YOUTH AND EDUCATING THEM IN A
SPIRIT OF PATRIOTISM**

Qaxxorova Saodat Qaxramonovna 

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasи
o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari izchil ravishda olib borilmoqdaligi hamda Innovatsion jarayonlardan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyatni rivojlantirish bilan birga, insonlar barqaror hayoti, erkinligi, tinchligi, va to'kis hayotni ta'minlashga qaratilishi, yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish ham milliy an'analar va qadriyatlarga, ham ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan bo'lishi muhim.ligi tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируется, что в нашей стране последовательно осуществляются процессы модернизации и обновления всех сфер, а основная цель инновационных процессов заключается не только в развитии общества, но и в обеспечении устойчивой жизни людей, их свободы, мира и благополучия. Также подчёркивается важность воспитания и обучения молодого поколения на основе как национальных традиций и ценностей, так и передового международного опыта.

Abstract

This article analyzes the fact that today in our country, processes of modernization and renewal of all sectors are being consistently carried out, and that the main goal of innovation processes, along with the development of society, is to ensure a stable life, freedom, peace, and a fulfilling life for people, and that it is important that the upbringing and education of the younger generation be based on both national traditions and values, and advanced international experience.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekistonni, Vatanparvarlik, barkamol yosh, jamiyat, ma'naviy yangilanish, inson qalbi.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, патриотизм, зрелый возраст, общество, духовное обновление, человеческое сердце.

Key words: New Uzbekistan, Patriotism, harmonious youth, society, spiritual renewal, the human heart.

KIRISH

Mamlakatimizda barkamol yosh avlodni tarbiyalash eng muhim ustuvor vazifalardan biridir. Shu bilan birga, yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish ham milliy an'analar va qadriyatatlarga, ham ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan bo'lishi muhim. O'zbekiston Respublikasida yoshlarning chuqur bilim olishi, kasbiy mahoratining shakllanishi, iste'dodining har tomonlama namoyon bo'lishida muhim rol o'ynagan strategik muhim vazifalar izchil amalga oshirildi. Mamlakatda yuqori darajalarga erishish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatni modernizatsiya qilish va demokratik jamiyat qurish yo'lida murakkab keng ko'lamlı vazifalarni hal qila oladigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash vazifasi qo'yildi. Shuning uchun ham O'zbekiston fuqarolik jamiyat bilimli, yuksak ma'naviyatli, tashabbuskor, barqaror fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarga - yangi shaklli kadrlarga muhtoj. Bu ayniqsa, o'z faoliyatini bozor iqtisodiyoti sharoitida boshlayotgan yosh avlod uchun to'g'ri keladi, uning muhim qismi fuqarolik jamiyatining ijtimoiy

ILMIY AXBOROT

asosini tashkil etuvchi o'sayotgan o'rta sinflar safiga qo'shiladi. Hozirgi yoshlar ijtimoiy munosabatlar asoslarini yaxshiroq bilish uchun ijtimoiy va siyosiy savodli bo'lishi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamiyatimizning ma'naviy yangilanish va Yangi O'zbekistonni shakllantirishning jadal sur'atlari davridagi bugungi sharoitda har bir shaxsdan yuksak ma'naviyat, ma'naviy quvvat, keng bilim va qobiliyat talab etiladi. Bu barcha sohada olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xalqimiz tur mush darajasini yanada yuksaltirish yo'lidagi ezgu maqsaddan dalolatdir. Zotan, fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin. Shubhasiz aytish mumkinki, kelajagimiz, yurtimiz kelajagi bizning o'rnimizga kimlar kelishiga, boshqacha aytganda, qanday kelajak avlodni tarbiyalashimizga bog'liq. Mamlakat kelajagi yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy faolligi, aql-zakovati, odob-axloqi, estetik, psixologik va jismoniy tayyorgarligi hamda har tomonlama barkamol bo'lib yetishishiga bog'liq. Ma'lumki, insonning ichki tabiiy go'zalligiga, har tomonlama rivojlangan jamiyat va ijtimoiy hayotga ega bo'lishi, insonning olamga munosabatini, har tomonlama barkamol bo'lishi, hayotdagi o'rni, ijtimoiy yo'nalish va o'z-o'zini anglashga chaqirish axloqiy va estetik tafakkurlarining yuksakligiga bog'liqdir.

Yosh iqtidorli olimlar, o'qituvchilar, talabalarga ilg'or ilmiy izlanishlar va yuqori texnologiyalar darajasiga chiqishda yordam berish maqsadida Respublikada ko'plab forumlar va jamoat tashkilotlari faol ishlamoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning ta'lim va yosh avlodni tarbiyalash tajribasi xorijdagi mutaxassislar e'tiborini tortmoqda. Bu boradagi davlat siyosati faol rivojlanishda davom etmoqda. Davlatning muhim vazifalaridan biri ma'naviy boy yoshlarni tarbiyalash, milliy tiklanish asosida axloqiy va ma'naviy jihatdan yangi avlodni tayyorlashdir.

Ma'naviy faoliyat ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun amalga oshiriladi. Ulardan eng muhim - axloqiy takomillashtirish, go'zallik tuyg'usini qondirish, atrofimizdagи dunyonи bilish zarurati bilan bog'liq. Ma'naviy qadriyatlar tizimi ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ma'naviy madaniyatning o'zi san'at, fan, axloq, dinning o'ziga xos yaxlitligidir. Ma'naviy tomon - bu jamiyat hayotining ajralmas xususiyati, shuning uchun uni ijtimoiy mayjudot sifatida shaxsdan ajratib bo'lmaydi va uning rivojlanish darjasini ma'lum bir tarixiy sivilizatsiya yutuqlarini ko'rsatadi. Biz jamiyatning rivojlanish darjasini nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy farovonlik darjasini, balki yoshlarning ma'naviy kamolot darjasini deb tushunamiz.

Tarixiy-falsafiy dunyoqarash, estetik tafakkurning shakllanganligi nafaqat axloqiy me'yorlar asosida yashash, go'zallik qonuniyatlarini asosida harakat qilish, balki insonning voqeа- hodisalarga ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi bilan belgilanadi. Uning ta'sirida umuminsoniy g'oyalari, ideallar, bilim va dunyoqarashlar asoslanadi, rivojlantiriladi va amaliyotda qo'llaniladi. Binobarin, uzuksiz ta'limda bo'lajak yosh avlodni tarbiyalashda tarixiy-falsafiy, axloqiy-estetik tafakkurni shakllantirib, yuksaltirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyatdir. Tarixiy-falsafiy (estetik) dunyoqarash ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida o'ziga xos nazariy va amaliy sharhlarga muhtoj. Garchi u insoniyat kelajagi rivoji uchun zarur bo'lsa ham jamiyat ravnaqida katta ahamiyatga egadir. Millatlararo munosabatlar shunday jarayonki, unda teng huquqlilik, murosa, hamkorlik prinsiplariga tayaniladi. Ma'lumki, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda dinning o'ziga xos o'rni bor. Dinga nisbatan, asosan, ikki yondashuv mavjud: birinchisi, din inson faoliyatiga, ongi va intellektiga bog'liq bo'Imagan, transsidental voqelik, ikkinchisi, u inson aql-u idroki, ratsional izlanishlarining bir ko'rinishi, deb hisoblashdir.

Dunyoqarash insonga xos bo'lgan ideallar tizimidan iborat: tabiat, jamiyat, tafakkur, faoliyatning ongini rivojlantirishga qaratilgan qarashlar. Binobarin, u inson ma'naviyatini boyitadi. Har bir inson dunyoqarashi rivojlangan holda o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yadi va ularga erishish uchun to'xtovsiz, ijodiy mehnat bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham u yoshlarni aql-idrok, o'z vatanini sevish va O'zbekiston Respublikasining buyuk kelajagini faol bunyodkorlari bo'lishga chaqiradi. Estetik tafakkuri, dunyoqarashi rivojlangan har bir shaxs o'z oldiga ezgu maqsadlar qo'yadi va ularga erishish yo'lida to'xtovsiz ijodkorlik ishlari bilan shug'ullanadi.

Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir. Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar ma'naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi. Ma'naviy tarbiya atamasi keng ma'noda inson shaxsini

shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda ma'naviy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqa faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi ma'naviy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lif va ma'lumot olish ham kiradi.

Uchinchi Renessans masalasi strategik vazifa sifatida milliy g'oya darajasiga ko'tarilayotgani, buning uchun mактабгача та'lif va maktab ta'lifi, olyi va o'rta maxsus ta'lif tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi ekanligi, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyorolar yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, bu tashabbusni qo'llab-quvvatlovchi ota-onalar yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'lishi shu Vatanda yashayotgan barcha vatanparvar fuqarolarning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Jamiyatda falsafaning nazariy asoslari va g'oyaviy munosabatlar ko'proq umumiylikka asoslangan shaxsning ta'lif va tarbiya yo'nalishi muammolariga o'z e'tiborini qaratadi. Bu yo'nalishda har bir ota-onaning falsafasi mavjud bo'lib, o'z farzandi tarbiyasida kelib chiqadigan muammolarni hal qilish yo'lida shaxslar bilan maqsadli munosabatni shakllantiradi. Mazkur jarayonda jamiyat va shaxs o'tasidagi dialektik aloqadorlik qotib qolgan tizim bo'lmay, balki doimiy ravishda xilma-xillik va rang-baranglikka asoslanadi. Chunki shaxs estetik madaniyati rivojlanayotgan jamiyatda yashayotgan insonlar o'z xalqi taqdiri, ma'naviy merosi va bugungi ijtimoiy taraqqiyot va munosabatlarga shunchaki yondashmasdan, balki barcha sohalardagi islohotlardan ko'zlangan maqsadlar va qonun hukmronligini mustahkamlashga intiladi.

Bunda ta'lif maskanidagi g'oyaviy yo'nalishni shakllantirishda ijtimoiy muhitga mos ravishda yoshlarning ideal modellarini yaratish, davr va jamiyat talablari negizida tarbiya jarayonini amalga oshirishning umumiyligi metodologiyasi yaratish vazifasi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishi ta'lif maqsadlariga qarab shakllanadi. Tarbiya jarayonining har bir aniq bosqichida hal qiladigan vazifalar odatda institutsional va davlatning ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ma'lum darajada yoshlarning o'z qiziqlishi va moyilligi hisobga olinadi. Yoshlarning o'zini-o'zi rivojlanish va o'zini anglash ehtiyojlari natijasida yangi g'oyalalar vujudga keladi. Bu yerda o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi takomillashtirish va hayotdagi shaxsiy maqsadlar, hayotning mazmunidan xabardorlikning ijtimoiy holati muhim rol o'ynaydi. Shular asosida hozirgi vaqtida ma'naviy madaniyat tizimida tarbiyaning maqsadlari shakllangan.

Ma'naviy madaniyatning jamiyatda mavjud bo'lishi, o'zini namoyon qilishi madaniy qadriyatlarni yaratishda insonning biologik tur sifatida o'ziga xos jihatlarini ajratib turadi. Insondag'i biologiklikdan tashqari ijtimoiylik bilan uyg'un tarbiya jarayonini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu holat bevosita tarixiy rivojlanish natijasida yangilanib va boyib kelgan. Ijtimoiy hayotda "Aqlli odam zotining muayyan jamoa va jamiyat bag'rida mo'tadil hayot kechirishi, bu jamiyat umumiyligi manfaatlari doirasida faoliyat yo'nalishi belgilashi uchun muayyan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar zarurligini hatto o'tmish ajdodlarimiz his etganlar".

Ular insonning mohiyati, uning muhim aqliy kuchlarini rivojlanish va faollashtirishda ijtimoiy faoliyat, qobiliyat va ijodkorlik, namoyon bo'lish individuallik katta ahamiyatga egaligini bilganlar. O'z navbatida, bunday shakllanish jarayonida shaxsning muayyan xususiyatlari va fazilatları, masalan, bilim va faoliyat, mehnasevarlik, iroda, o'z-o'zini rivojlanish dolzarb sanaladi. Yoshlar ma'naviy madaniyatning mohiyati insoniyat tarixiy rivojlanishi jarayonida ijtimoiy ong shakllarida namoyon bo'lib kelgan.

Tarixiy rivojlanishda insoniyat taraqqiyoti turli qarama-qarshi ikkita tendensiya asosida namoyon bo'lgan. Bir tomonidan, inson borlig'ining individualligi va boshqa tomonidan, jamiyatdagi integratsion jarayonlarning kuchayishi, shakllanishi odamlarning transmilliy jamoalarda uyushishidir. Ushbu tendensiylar, har biri o'z navbatida, jamiyatda falsafiylikni belgilaydi va yoshlarning o'zini-o'zi tarbiyalash munosabatlari, maqsadlari va vazifalarini belgilaydi. Yoshlar jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi, hayotdagi maqsadlarini amalga oshirishda individual bilim real imkoniyatlarini namoyish qilishi muhim jarayon hisoblanadi. Yoshlar ijtimoiy tajribani ijtimoiy borliq shakli sifatida namoyon qilib, shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida bu holat aks etadi. Mazkur

ILMIY AXBOROT

jarayon "Insoniyat tarixiy taraqqiyotida erishilgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalmilallahib, universallashib borishi, dunyoda milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integratsiyalashuv jarayonini kuchaytirmoqda. Yoshlarning muhim xususiyatlaridan biri ma'naviy va moddiy qadriyatlarni ishlab chiqarish qobiliyati aks etadi. O'zaro bog'liqlik jamiyatda yoshlarning jamiyat elementi sifatida keng harakatlanishiga imkoniyat yaratadi. O'tmish tajribasiga asoslangan qadriyatlar moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, madaniy yutuqlarga erishishda dolzarb sanaladi. Insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlarning mavjudligi faqat moddiy shaklda emas, balki muayyan belgi, shakli va hokazo ko'rinishda bo'lishi mumkin. Xuddi shu moddiylashtirilgan ijtimoiy ahamiyatga ega shaklda ma'naviy qadriyatlar boshqa jamiyatda yashaydigan jamiyat a'zolarida yoki avlodlar o'rtasida davom etishi mumkin.

Tafakkur inson faoliyatining rivojlanish mazmunini, uning tabiatini, ijtimoiy jamiyattdagi qarashlarini belgilab beradi. Tizimli ta'lif sharoitida boshlang'ich tayyorgarlikning yetishmasligi, uyda ota-onalarning yetarlicha malakalari yo'qligini hisobga olgan holda milliy va jahon durdonalarini yoshlarga singdirish qiyin bo'ladi. Bu yerda yosh xususiyatlarini, tayyorgarlik darajasini va boshqalarni hisobga olish kerak. Shuning uchun ham mактабгача та'lif yoshidan to yuqori sinfgacha musiqiy madaniyat darsi rejasini o'ylab tuzib chiqish kerakki, bola katta bo'lguncha milliy madaniyatimizdan tortib, to jahon madaniyatigacha tushuna olsin. Shundagina yosh avlodning tafakkuri rivojlanib yuksaladi.

Yoshlar intilishi kerak bo'lgan ma'naviy-estetik tushunchalar va qadriyatlar doirasini ajratib ko'rsatish lozim. Har bir yosh kesimida psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda idrok etish madaniyatini shakllantirish zarurdir. Yoshlar estetik tafakkurining yuksalishi har bir yoshda tuyg'ular, madaniyatni idrok etish madaniyatini singdirish ta'siri ostida shakllanishi kerak. Yoshlar tafakkurini shakllantirishda malakali pedagog-o'qituvchi, murabbiy yordam berishi kerak. Yurtimizda barcha xalqlar va millatlar uchun millatlararo totuvlikni ta'minlash Konstitutsiyamiz va joriy qonunlar bilan mustahkamlangan. Demak, bosh qomusimizdag'i milliy siyosatning asosiy maqsadi xalqimizning etnik va boshqa belgilaridan qat'iy nazar yagona O'zbekiston xalqi sifatida jipslashuvi va birligiga erishishdir.

Barkamol shaxs - bu milliy va umuminsoniy, jahon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga, ma'naviy, axloqiy va jismoniy barkamollikka intiladigan shaxs. "Faqat jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan odamni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo uni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan kamol toptirish g'oyat murakkab vazifa. Ayniqsa, bugungi kunda – ma'rifiy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan hozirgi nozik, qaltis sharoitda, tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega".

Ilm-fanning eng ilg'or yutuqlarini o'zlashtirgan odamlar, ma'naviy boy, erkin fikrلaydigan, o'tmishi bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan odamlar yuksak rivojlangan O'zbekistonni yaratishga qodir. Progressiv ijtimoiy rivojlanish - bu hayotning barcha sohalarida ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, bu esa har bir insonga haqiqiy insoniy mavjudlik cho'qqilarini zabit etish imkonini beradi. Ma'naviyat - bu insonning madaniy va axloqiy merosi bo'lib, u ota - bobolaridan, o'z xalqidan meros bo'lib qolgan. Odamlarning ma'naviy qadriyatları xalqning ma'naviy qadriyatlarida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlikni targ'ib qilish bo'yicha monitoring ishlari ham jadal olib borilmoqda. Bugungi kunda har qachongidan ham yangi fikrلash va ishga munosib yondashish, shuningdek, milliy tahlil markazlarini shakllantirish talab qilinmoqda. Bizda atrofimizda bo'layotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini chuqur tushunadigan, o'z fikrлarini tinglovchilarga tushunarli tilda yetkazadigan nufuzli tahlilchilar va ekspertlar yetarli emas. Shu boisdan ham jamiyatni ma'naviy sohadagi tahdid va muammolardan himoya qilish uchun ilmiy va amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Shu ma'noda, Taraqqiyot strategiyasi va Islom sivilizatsiyasi markazlari va ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqot instituti haqiqiy "Fikrلash markazlari" ga aylanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'XATI

1. Abduhalimov B. Akademik ilm-fan milliy yuksalishga yuz tutayotir. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil, 29-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Mavrusov A. Uchinchi Renessans munosib kelajak poydevori. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil, 6-oktabr
4. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir // Sh.Mirziyoyevning Respublika baynalmil madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvidagi nutqidan URL: <http://aza.uz/uz/posts/millatlararo-d-stlik-va-amzhi-atlik-khal-imiz-tinchligi-va-f-24-01-2017>
5. Erkayev A. Uchinchi Renessans milliy g'oya sifatida."Yangi O'zbekiston", 2020-yil, 9-sentabr
6. Saidov A. Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil, 4-sentabr.
7. Qakhrova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. Farg'ona davlat universiteti, (5), 17-17.
8. Jurakulovich, S. J. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(11), 307-311.
9. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
10. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.
11. Shodiyev, J. (2021). JAMIYATDAGI MEHNAT MUNOSABATLARI SHAROITIDA MA'NAVIY SALOHIYAT. Журнал истории и общества, (2)
12. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi.-T.: Sharq, 2003. –B. 350.